

This is not registered version of TotalDocConverter

Qor yogʻ binoqda eroqiyab, goxo odamlar, goxo toʻzib, sassiz - sadosiz, jimgina yogʻ hayotir u. Oppoq qor uchqunlari aro xuddi son - sanoqsiz meteoritlar ichra yoʻrtib borayotgandayman. Men shunday ketib borayapman. Shunchaki, maqsadsiz, yogʻ biz bir oʻzim tentirab "Grenobl; dan "Don Mils; koʻchasi tamon bormoqdaman. Boʻralab yogʻ hayotgan qorda botiniy xotirjamlik, yogʻ bizlik, cheksiz yetimlik, mangu va maxzun, adoqsiz bir qoʻshiq borday, qor yorugʻ bidan ruhim zulmatlari yorishayotganday tuyuladi goʻyo. Bu qorli yoʻllarning kimsasizligi naqadar yaxshi! - hayolimdan oʻtkazaman men. Negaki, men odamlardan tamoman bezdim. Tropik changalzorlar aro oquvchi Amazonka daryosidagi "Piraniya; deb nomlangan qonxoʻr baliqlar kabi koʻzlarini chaqchaytirgan kimsalarning qilvir fitnalaridan, adolatsiz, nohaq fisqu - fasodlaridan, sayoz, tuzsiz suhbatlardan charchadim, holdan toydim, tinkam quridi. Oliy imoratlaru vayronalarga, tugʻ buriqxonayu qabristonlarga bir xil yogʻ huvchi shoxu gadoga barobar qorning oppoq uchqunlariga belanib negadir men kabi kindik qoni tomgan Diyoriga qaytolmay hasratda ketgan shox va shoir Zahiriddin Muhammad Boburni esladim.

Hazon yaprogʻ bi yangligʻ b gul yuzing hajrida sargʻ bardim.

Koʻrib rahm aylagʻ bil ey lolaruh bu chexrai zardim.

Xazonni gulga zidlab tazod sanatini qoʻllarkan, shoir oʻzi oshiq boʻlgan Olloxga tavallo qilib uning vasliga intilib bu yoʻlda chekkan jabru sitamlaridan zorlanadi, yorining shafqat qilishini soʻraydi. (Chexrai zardim - sargʻ haygan yuzim demoqchi) (Zargʻ baldoq - sariq qush. Zardob - zard ob yani sariq suv. Zar - oltinning sariqligiga ishora)

Sen ey gul qoʻymading sarkashligʻ bingni sarvdek hargiz,

Oyogʻ bingʻ ba tushib bargi hazondek qancha yolbordim.

Sen gul kabi yashnab meni vaslinga zor qilishingni qoʻymading. Men esa novdadan uzilgan kuzgi yaproq kabi poyinga bosh urdim yani sajdaga bosh qoʻydim - deydi hazrati Bobur.

Ne toleki mengakim axtari baxtim topilmaydir,

Falak avroqini har nechakim daftardek axtardim.

Toleyim shumligi onchaki, axtari baxtim (Axtar - yulduz, baxtim yulduzi) topilmaydi. Falak avroqini (Osmon varaqlarini) Daftardek varaqlasam ham.

Hazondek qon yoshim sorigʻ b yuzimdin el tanaffurda,

Bahar rangi bihamdillox, ulusdin oʻzni qutqardim.

Kuzgi xazonlar kabi qizargan qonli koʻz yoshlarim va sargʻ haygan yuzimdan el tanaffurda yani, nafratda. Bihamdillah - Olloxga hamdlar boʻlsinki, ulusdan yani, odamlardan oʻzimni qutqardim. Zahiriddin Muhammad Bobur bir narsa qilib odamlardan oʻzini qutqarib olishga muvaffaq boʻlgani uchun Yaratganga shukronalar keltiradi.

Ulusning tani tarifi menga Bobur barobardir,

Bu olamda oʻzimni chun yomon yaxshidan oʻtkardim.

Ulusning tani - tarifi yaniki, odamlarning tanayu malomati bilan tarifu maqtovlari men uchun ahamiyatsiz. Men dunyoda yashamadim balki, umr boʻyi urinib - surinib oʻzimni yaxshi -yomon orasidagi tirik koridordan oʻtkazdim halos - deya gʻ bazalini itmomiga yetkazadi sarkarda shoir. Men esa hamon qor uchqunlari aro boraveraman. Mayli, zulmatda yogʻ hayotgan qor yanada kuchaysin. Mayli, "Fleming Don Park; oʻrmonlaridan boʻrilar galasi chiqib meni gʻ hajib tashlasin. Pastkash, qoʻrroq kimsalarga - bakteriyalarga, mayda mikroblarga talangandan koʻra boʻrilarga yem boʻlish sharaf! Faqat yoʻlimdan odamzod chiqmasa boʻlgani! Sen esa menga etibor bermay yogʻ baver, qadrdomim Qor! Sen yoqqan saring dildagi qontalash jaroxatlar ham koʻmilib borayotganga oʻxshaydi. Ha, sen xuddi jaroxatga bogʻ blangan dokaday oqarib boryapsan. Men sening chirpirab uchayotgan oppoq zarralaring aro ketaversam, ketaversam, ketaversam, ketaversam, va oxiri charchab yiqilsam, muzlab qolsam, odamlardan qutulsam, halos boʻlsam. Sen toʻxtovsiz yogʻ hib meni koʻmib yuborsang. Hatto bola - chaqalarim toshfonar koʻtarib tun boʻyi izlasalar ham topa olishmasa. Mangu yoʻq boʻlib ketsam. Sen esa yana hech narsa boʻlmaganday yogʻ baversang, yogʻ baversang, yogʻ baversang, yogʻ baversang.